



Navoiy obrazining yangi talqini

Aziza Xakimova

e- mail: azizaxakimova1001@gmail.com .
Tel: (94)1550819

Annotatsiya : Ushbu maqolada o‘zbek romanchiligida Navoiy obrazining yangicha yondashuv asosida yaratilgan Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani tahlilga tortilib , xulosalar chiqarilgan. Romanning kompazitsion qurilishi jihatdan , yozuvchining obraz yaratishda hamda qahramon hissiyotlari ifodalashda navoiyyona yondashuv , shuningdek, Navoiy shaxsining o‘zi yashab o‘tgan davrdagi jamiyatdagi o‘rni tadqiq etilgan.

Kalit so‘z : tarixiy roman , obraz , Alisher Navoiy , badiiy tafakkur, doston, devon, Xazoyin ul-maoniy, Xamsa, Hayrat ul- abror, kompazitsion qurilish, tush motivi , yor ,oshiq .

Новая интерпретация образа Навои

Азиза ХАКИМОВА

e- mail: azizaxakimova1001@gmail.com .
[Tel:\(94\)1550819](tel:941550819)

Аннотация: В данной статье анализируются и делаются выводы из романа Исаджона Султана «Алишер Навои», в основу которого положен новый подход к образу Навои в узбекских романах. С точки зрения композиционного строя романа исследуется авторский подход Навои к созданию образа и выражению эмоций главного героя, а также роль личности Навои в обществе при жизни.

Ключевые слова: исторический роман, образ, Алишер Навои, художественное мышление, эпос, девон, Хазайн ул-маоний, Хамса, Хайрат ул-аброр, композиционное построение, мотив сна, друг, возлюбленный.

A new interpretation of Navoi's image

Aziza KXAKIMOVA

e- mail: azizaxakimova1001@gmail.com .
[Tel:\(94\)1550819](tel:941550819)

Annotation: This article analyzes and draws conclusions from Isajon Sultan's novel "Alisher Navoi", which is based on a new approach to the image of Navoi in

Uzbek novels. In terms of the novel's compositional structure, the author's Navoi approach to image creation and the expression of the protagonist's emotions, as well as the role of Navoi's personality in society during his lifetime, are studied.

Keywords: historical novel, image, Alisher Navoi, artistic thinking, epic, devon, Khazayn ul-maoniy, Hamsa, Hayrat ul-abror, compositional structure, dream motif, friend, lover.

O'zbek adabiyoti nasrida tarixiy asarlarning o'z o'zni bo'lib, har bir ijodkor tariximizda bo'lib o'tgan voqealardan o'quvchilarga o'rnak va xulosa bo'lishini istaydi. Filologiya fanlari doktori, professor I.Yoqubov aytganidek: "Tarixiy romanlarda xalqimizning o'tmishida kechgan hayoti, bobolarni yuksaltirgan go'zal ma'naviy fazilatlar yoritilmoqda. Bunday romanlarda umumbashariy qadriyatlar ustuvor estetik mezon bo'lmoqda. Romanlarda jahongirlar va shayx-valiylar, shoir hamda allomalar obrazlari yaratildi. Ularning o'ziga xos imon-e'tiqodi, maqsad-maslagi, fikrlash tarzi, ruhiy-psixologik olami estetik tahlil obyektiga aylandi". [7.273]. Adabiyotimiz "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" (Pirimqul Qodirov), "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo" (Odil Yoqubov), "Me'mor" (Mirmuhsin), "Ulug' saltanat", "Sarbadorlar" (Muhammad Ali), "Navoiy" (Oybek) kabi sanasa adog'i yo'q tarix haqida so'zlovchi durdonalarga ega. Endilikda biz, bir qator ijod namunalari bilan qalbimizga kirishga ulgurgan yozuvchi – Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" tarixiy namunasini durdonalarimizdan biri desak bo'ladi.

Ma'lumki, Hazrat Navoiy o'zbek va jahon adabiyoti va tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan shaxs bo'lib, har bir ijodkor borki, uni o'z asarida jonlantirishga, vasf etishni oldiga maqsad qiladi. Buning natijasida Navoiy obrazi adabiyotimizda turli ijodkorlar tomonidan ham nasrda ham nazmda yaratilgan. Xususan, Mirkarim Osim, Oybeklar nasrda, Izzat Sulton va Uyg'unlar o'z dramalarida, G'afur G'ulom, Mirtemir, Abdulla Oripovlar she'rlarida buyuk shoirning siymosini chizgan. "... bu asarlarning aksariyatida Alisher Navoiyning sermazmun hayoti hamda serqirra faoliyati butun rang-barangligi bilan namoyon bo'lgan. Ularni o'ziga xos navoiynomaning alohida-alohida sahifalari sifatida tasavvur etish mumkin" [9.2]. Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Gulbahor Ashurova o'zining "Navoiy obrazi va badiiy tafakkurdagi estetik tuyg'u takomili" maqolasida "Yangi davr buyuk mutaffakir hayoti va ijodini o'rganishning o'ziga xos yangi bir bosqichiga qadam qo'ydi" deydi. Isajon Sulton o'zining boshqalarga o'xshamagan yondashuvi asosida badiiy tafakkur mahsulini yaratishi olimamiz fikrining dalilidir.

Yozuvchi Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" tarixiy romani ilk sahifalarini varaqlashni boshlashimiz bilan navoiyyona nafasni his etamiz. Asar kompozitsiyasini qurilishiga e'tibor bersak, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga kiruvchi devonlarining nomlari bilan atalgan. Bu kulliyotga 4 ta devon kirganini inobatga olsak asar ham 4 qismdan iborat:

1. "G'aroyib us-sig'ar" (Bolalik g'aroyibatlari);
2. "Navodir ush-shabob" (Yigitlik nodirliklari);
3. "Badoyi' ul -vasat" (O'rta yosh go'zallik);
4. "Favoyid ul-kibar" (Keksalik foydalari).

Hamma qism boshlanmasi *muqaddima*, *madh*, *hamd*, *hayrat* deb atalgan kirish boblar bilan ibtidosini topadi. Mazkur boblardan muqaddima, madh mazmun jihatdan Navoiy asarlaridagi hamd boblarga o'xshasa, hamd va hayrat boblari aynan ijodkorning "Hayrat ul-abror" dostonining muqaddimmaviy boblaridan olingan. Yozuvchi Navoiy obrazini yaratarkan, unga Navoiyning nigohi bilan, Navoiy olamiga qarab yaratdi. Kitobning to'rt qismga bo'linishi ham Navoiyning umrni fasllarga monand qilishi hamda uni to'rt mavsum : bolalik–bahor, yigitlik– yoz, o'rta yosh–kuz, keksalik–qishga bo'ladi. "Agarki olamni yorituvchi quyoshning o'z yo'lida olamni aylanib chiqishini bir yil deb atadilar va bu bir yil to'rt faslda iboratdir... To'rt faslning muqobiliga to'rt devon paydo bo'lib, har biriga bir munosib ot qo'yish lozim bo'ldi..." [1.336]

Asardagi syujet tizimini Navoiy o'z asarlarida keltirib o'tilgan voqealar, hodisalarga asoslangan. Ba'zi joylarda asarning o'zidan shunday ko'chirish bilan kiritilgan. Isajon Sulton shunday vaziyat yaratadiki, "Xalosiya" madrasasida toliblar-u mudarrislar qatorida Toyobodiydan "Xamsa"dan parcha tinglaymiz. Nafaqat parcha tinglaymiz, ijodkorning badiiy echimi orqali kiritilgan parcha bilan Navoiy suhbatiga musharraf bo'lamiz. Jomiy huzurida sodir bo'lgan g'ayb uchrashuv lavhasi orqali kitobxon Navoiy so'zidan voqif bo'ladi. Yozuvchining bunday yo'l tutishi to'g'ri hisoblanib, buyuk avliyo "Xamsa"si va ijodidan yaqindan tanish bo'lmagan o'quvchiga bu hodisani qalamkash tilidan bayon etilishi lofdek tuyulardi. Allaloqibat, ziyarak kitobxonni ensani qotirardi. Yozuvchi Navoiy hayotining mazmuni ochishda "Mo'minlarning qalbiga hursandchilik kiritish butun odamlar va jinlarning qilgan ibodatidan yaxshiroqdir" konsepsiyasiga tayangan.

Navoiy turkiy til darajasini mukammallikka ko'targan, xalq rahnamosi sifatida qanday etishi haqida so'zlanarkan, ustoz Abu Abdulloh Kulohiy til va so'z haqidagi bilimlari, "Mantiq ut-tayr"ning berishi bola Alisherning keyingi faoliyatidagi ta'siri, Olloh tomonidan berilgan iste'dod egasi buyuk zotlarning duo olishi, falakning unga ilk she'rini tuhfa qilishi, Sulton Husayn Boyqaro bilan do'stlik rishtalarining bog'lanishi, gardun ishlari endi tanilayotgan shoirning musofirlikdagi qiyinchiliklari, Pahlavon Muhammad, Kamol Turbatiy, Shayxim Suhayliy kabi ijodkorlar bilan tanishuvidan "G'aroyib us-sig'ar" qismida voqif bo'lamiz. Shu o'rinda aytib o'tsak, Isajon Sulton Mirkarim Osimdan farqli ravishda Samarqandga vaziyat taqazosi tufayli o'zi ketishga qaror qilgani haqida aytilsa, Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" qissasida Samarqandga Sulton Abu Said qarori bilan jo'natilgan deyilgan. Oybekning "Navoiy" romanida bu voqealar berilmagan bo'lib, syujet Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishidan boshlangan. Bu erda har ikki asardagi voqealardan birini to'g'ri yoki xato demoqchi emasmiz, chunki Navoiy davrida yashagan Mirxond, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiylar asarlarida ilm o'rganish vajida ketgan deyilsa, Zahiriddin Muhammad Bobur surgun deb ataydi. Bu navoiyshunoslikda bahsli bo'lib, hali aniq to'xtamga kelinmagan. Navoiy Samarqanddagi qiyinchilikda o'tkazgan kunlari, Sayyid Hasan Ardasher yordamida Fazlulloh Abulays bilan tanishuvi Qozizoda Rumiy madrasasida tahsil olishi, Vatanga qaytish, ota chirog'ini yoqishi, podshoh do'stining marhamat va ehiromi bilan Navoiy quyoshining ko'tarila boshlashi, Yodgor Mirzo va Husayn Boyqaro taxt uchun urushlar "Navodir ush-shabob" qismida voqelangan. Alisher bilan Fazlulloh Abulays

o'rtasida tariqat masalasida suhbatini asnosida fiqhshunos olim Fazlulloh Abulays Alisherdagi cheksiz so'z qudratini his qilgan holda unga : *"Shuni bilib oling : zikr va muroqaba , biror musulmonga yaxshilik baxsh etuvchi xizmat bo'lmagandagina bajariladi. Insonning ko'nglini charag'on etishiga sabab bo'ladigan xizmat, zikr va muroqabadan ancha oldin keladi... Xo'ja Ahror Valiy ...dediki : "Men nu haqiqatlarni tasavvuf kitoblaridan bilib olganim yo'q , xalqqa xizmat qilib o'rgandim!"* " [1.148-149-betlar] . Bu yosh shoirning kelajakdagi amallari uchun asos bo'ldi. Samarqandda olgan bilimlari uning butun umri davomida yo'ldosh bo'ldi. "Alisher Navoiy" romanida Hirotni qayta egallash uchun yashirinchalik yo'lga chiqishganda Shayx Bobo Xokiy bilan uchrashuvi berilmaydi. Bu jihati bilan ham Oybekning "Navoiy" romanidan farq qiladi. *"Zamon podshohi ro'zgori havodisidin shikate voqe' bo'lub, buzulub Foryob va Maymana haddig'a borg'ondakim , mulkini dushman olib erdi. Andin yanib, yana taxt talashib, dushman ustiga kelganda ,Bobo (Xokiy) takyasig'a tushdilar. Bobo himmati tutub, nasoyih¹ aytib, yuz o'n yoshig'a yaqin erkanda o'tlanib, podshoh bila Gitu tog'ig'a chiqib, shahr soriki dushman makoni erdi boqib, suron solib, mulkni havola qildi..."* [4.229].

Isajon Sulton Husayn Boyqaro obrazini yaratyotganda bu voqeani kiritishga ehtiyoj sezmagani. Chunki Husayn Boyqaro din va ma'rifatga homiy, adolatli hukmdor qiyofasini Navoiy bilan munosabatlarning o'zida ko'rinadi. "Navoiy" romanida bu voqeani qistirib o'tish orqali Husayn Boyqaroda faqat hukmdorga xos sifatlardan tashqari darveshona xususiyat borligi va shu davrning mashhur shayxi Bobo Xokiy e'tibori va duosiga munosib shaxs ekanligi bildirib o'tgan. "Navodir ush-shabob" Hirotning qayta egallanishi bilan yakullanadi.

Romanning "Badoyi' ul -vasat" qismi Alisher Navoiyning xalqparvar inson, adolatli amaldorligidan so'zlovchi voqealardan tashkil topgan bo'lib, vaqf idorasiga kiritgan yangiliklari, "Ixlosiya", "Shifoia", "Xalosiya" nomli madrasa, shifoxona, xonaqoh bunyod bo'lishi, xalq dardiga davo bo'lishi qabasalarni aylanib, kamchiliklarni o'rganishi, butun Xurosonda Husayn Boyqaro qanoti ostida keng ko'lamli obodonchilik ishlari bayon etilgan. "Favoyid ul-kibar" boshqa qismlarga nisbat kattaroq bo'lib, Navoiyning umrining uch mavsumi bosib o'tib olgan xulosalarining asarlarida muhrlanishi aks etgan. Bundan tashqari Navoiyning Astrobodga ketishi fitna tufayli Balxda Darveshali isyoni, Xadicha Sulton va Nizommulk fitnasi tufayli Mo'min Mirzo halokati, podshoh o'g'illarining isyoni, oqibatda mamlakat zaiflashuvi, armonga aylangan haj safarlarining qaytarilishi, bu jamiki sinovlarda ikki do'st bir birini qo'llashi-yu Navoiy mamlakat tinchligini ushlab turgan omillardan biri ekani haqidagi hayotiy haqiqatni o'ziga xos obrazli tasvirlar bilan kitobxonga etkaziladi.

Ijodkor romanni yozishda Navoiyning ijodi va faoliyatini yoritish orqali shoir shaxsini gavdalantrish bilan birga u yashagan davr muhitini ham haqqoniy, jonli tasvirlashga harakat qilgan. Davr va muhitni yoritishda Oybekdan farqli ravishda chingiziy xonlar Abulxayrxon va Shayboyinxon obrazlarini kiritish bilan Movarounnahr va Xurosondan tarkib topgan Temuriylar saltanatidagi siyosiy holat

¹Nasoyih- nasihatlar, o'gitlar (Navoiy asarlari izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1972.452-bet).

haqida tasavvurni paydo qilib, unda Navoiy shaxsning tutgan o'rnini ko'rsatib beradi. Chunonchi, Shayboniyxonning "Xamsa" sharafiga xalqqa osh berishi-yu, "... – Nizomiddin Mir AlisherNavoiy Hiriya bandalikni bajo keltiribdi.

Shayboniyxon o'rnidan turib ketdi.

– Hay Olloh!... Ey voh ! –dedi so'ng, siyrak sochli boshini quyi egib.–Turk eli boshiga kelgan eng qattiq musibat mana shu bo'lmish. Men Xurosonni Navoiy bo'lgani sababli bosmagay edim." [1.437] deyishi Navoiyning Temuriylar saltanati va undan tashqaridagi obro'sidan dalolatdir.

Xuroson mamlakati Navoiy va Husayn Boyqaro do'stligi natijasida gulladi. Har ikkisinin ham hayotida do'stlikni ta'siri isbotlovchi voqealarni yozuvchi badiiy mahorat bilan keltirar ekan, yana Navoiyning o'ziga tayanadi. Jumladan , Navoiyning Husayn Boyqaro va o'g'illari o'rtasidagi yuzaga kelib turgan nizolarning tinchlik yo'li bilan hal qilishda ko'makchi bo'lgani-yu, Badiuzzamonga Husayn Boyqaro iltimosi bilan nasihat maktubini yozishi, u davlatni to'g'ri boshqarish uchun yo'l yo'riq mazmunida yozilgan. Bu maktub Navoiyning "Munshaot" asariga 57-maktub sifatida o'rin olgan [5.33]. Yozuvchi maktubni butunicha asarga ko'chirib o'tadi. "Xazoyin ul maoniy " kulliyotining yaratilishiga va undan oldingi devonlarning yaratilishiga Husayn Boyqaro farmoni turtki bo'lgani, sultonning Navoiy g'azallariga muharrirlik qilganini " Xazoyin ul-maoniy" ning birinchi devoni "G'aroyib us-sig'ar" debochasidan parcha keltirilishi vositasida Navoiy ijodidagi Sulton Husayn Boyqaro o'rni bilishimiz mumkin.

Biz yozuvchining Navoiy g'azallariga yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda ham tahlil qilganini ko'rishimiz mumkin. Bola Alisherning ilk bayti :

Orazin yopqach ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'g'och quyosh...[1.63]

Bunda yozuvchi bola nigohila boqib, yor bu ona, oshiq esa farzand bo'lib, ona sog'inchida to'kkan ko'z yoshlarining go'zal tashbehleri sifatida talqin qilinadi. Aynan shu baytni asarning xotimasida Qutbning Alisher Navoiy vafotini eshtib to'kkan ko'z yoshlari tariflash uchun keltirgan. Bunda yor va oshiqni timsollarini bildiruvchi ona va farzand o'rni almashgan.

Yozuvchi Navoiy ijod jarayonini koinot olamida sodir bo'lyotgan ilohiy mo'jiza kabi tariflab, Navoiyni Buroq otiga mengzab taffakkur olami shiddat ila yuqoriga ko'tarilgani, asarlari koinotdan tushgan xazinaga o'xshatgan. "*Dafina*²*erdi, xazina bo'lib er betiga chiqdi. Yo'q-yo'q, chiqdi dema, balki yuksak olamlardan zamin yuziga tushdi*"[1.278].

Romanda tush motivi hamda yulduz uchishi bilan bog'liq voqealar muayyan badiiy yuk tashiydi. Asarda dumi yuqoriga ko'tarilgan yulduzning yuqorilab uchishi hosiyatli sanalishi, umrida uch marotaba bu hodisaga guvoh bo'lgan inson jannati bo'lishi haqidagi mifik qarash beriladi. Navoiy umrining muhim pallalariga ishora sifatida uch marotaba bu hodisaga guvoh bo'ladi. Birinchi marotaba ko'rganida hali bola bo'lib, bu hodisadan so'ng o'zining ilk baytini yozadi. Ikkinchi marotaba ko'rganida Samarqanddan Hirotga qaytayotganida yuz berib, bu kelajakdagi qilinajak

²Dafina – ko'milgan xazina, ko'milgan boylik (Navoiy asarlari izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1972.184-bet).

yaxshi ishlarga ishora bo'lib, uchinchi marotaba ko'rgandan so'ng turkiy tildagi Navoiy "Xamsa"si dunyo yuzini ko'rdi. Yozuvchi "Layli va Majnun" dostonidan Laylining ota-onasi vafotidan xabar bergan tush motivini Navoiy hayotiga kirgizadi hamda ota-onasidan judolikka ishora beradi. Navoiy ona qabrini ziyoratiga kelganida uning dard va alamlarini hislarini Majnun ona mozori ustida aytgan so'zlarini iqtibos qilib berish orqali tasvirlaydi. Keyinchalik asar oxirida Navoiy hayotidagi bo'lgan voqeani "Layli va Majnun" dostoniga kiritdi deya yozadi. Bu bilan muallif Navoiy dostonlarining qahramonilarida ijodkorning o'zi yashaydi demoqchi emasmikin

Xulosamizni Jamol Kamol fikri bilan bayon qilsak, *"...Ularni baholash, talqin etish uchun biz, faqirlarga Navoiy etukligi darajasiga ko'tarilish yo'l bo'lsin, lekin, harholda hazratning ma'naviy dunyosiga yaqinlashish, uning kamoliga ergashish shart"*[8.137].Romanda Navoiy komil etuk inson sifatida yaratilib, adib o'quvchiga Navoiy qiyofasida ideal shaxs obrazini chizib bergan. Asarning ma'rifiy-estetik qimmatini shundaki, Navoiy dahosining chin insoniy fazilatlari tasvir etilgan jonli epizodlar kitobxon qalbiga yaqin va yuqumli tasvir etilgan, shuningdek, Navoiy hayotiga yashagan davr muhitiga yangicha poetik nigoh orqali yondashilgan. Ijodkor Navoiyga yaqinlashishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Sulton I. Alisher Navoiy . Toshkent, "ADABIYOT" . 2021
2. Oybek .Navoiy . "Navro'z ", Toshkent. 2019.
3. Osim M. Zulmat ichra nur .www.ziyouz.com .kutubxonasi.
4. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat.www.ziyouz.com .kutubxonasi.
5. Navoiy A. Munshaot.www.ziyouz.com .kutubxonasi.
6. Navoiy A. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar.www.ziyouz.com .kutubxonasi.
7. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi.Toshkent.,"Nurafshon business".2021.
8. Alisher Navoiy.G'azallar .Sharhlar. Toshkent , "Kamalak". 1991.
9. Ashurova G. Navoiy obrazi va badiiy tafakkurdagi estetik tuyg'u takomili.maqola.https://tsuull.uz/sites/default/files/navoiy_obrazi_va_badiiy_tafakkur_dagi_estetik_tuygu_takomili.pdf